



YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Yo‘ldosheva So‘naxon Zokir qizi

IT park Xonqa bo‘limi xodimi, magistr

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va tamoyillari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, tamoyil, barqaror rivojlanish, samaradorlik.

Bugungi kunga kelib, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada uning yangi turlari shakllandi va o‘zining ijobiy ta‘sirini o‘tkazmoqda. Shular tarkibida iqtisodiyotning yangi tarmog‘i sifatida yashil iqtisodiyot shakllandi. Yashil iqtisodiyot barqaror o‘sishga asoslangan iqtisodiyot sifatida alohida o‘rin tutadi va uni rivojlantirish uchun ma‘lum tamoyillarga rioya qilish asosiy maqsad bo‘lib hisoblanadi. Yashil iqtisodiyotga xos yangi iqtisodiy konsepsiya iqtisodiy o‘sish va tabiiy resurslarni tejash o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan. U quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- cheklangan muhit sharoitida ta‘sir doirasini cheksiz kengaytirish mumkin emas;
- yer resurslari cheklangan va iste‘molning ortishi tugallanadi;
- yer yuzidagi barcha jarayonlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq.

Ba‘zi manbalarda yashil iqtisodiyot tamoyillari quyidagi xususiyatlarni tavsiflashi qayd etiladi [1]:

- barqaror rivojlanishning potensial harakatlanuvchisi sifatida jahonda qashshoqlik muammosini hal qilish uchun iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi;
- ehtiyoj va sharoitlarga qarab mamlakat, hudud yoki mintaqa uchun ishlab chiqilgan barqaror rivojlanishga kompleks yondashuvni ta‘minlay oladi;
- aholining barcha qatlamlarining ijtimoiy himoya va barqarorligini ta‘minlaydi;



- uzoq muddatga ishlab chiqilgan va tashqi ta'sirlarga bardosh bera oladigan barqaror o'sish modelini ifodalaydi;
- YaIMdan tashqari taraqqiyotni o'lchaydi;
- aholi bandligini ta'minlash, yashil biznesni rivojlantirish va yashil ish o'rinlarini yaratishga asoslanadi;
- asosiy e'tibor texnologiya va innovatsiyalar, hamkorlik va institutsionalizmni rivojlantirishga qaratiladi;
- ijtimoiy va ekologik xarajatlarni narx belgilash mexanizmlariga kiritish orqali narx ta'sirlarini yuboradi;
- energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan kam uglerodli energiyani rivojlantirishga imkon beradi;
- resurslar tanqisligi muammosini hal qilish va atrof-muhit, jumladan ekotizimlar va bioxilma-xillik holatini yaxshilashga qaratiladi;
- ishtirok etish va hamkorlikda barcha manfaatdor tomonlarni jalb qilishga imkon beradi.

Mazkur tamoyillar to'plami muvozanatli bo'lib, barqaror rivojlanishning institutsional muammolar, integratsiya va xalqaro hamkorlik masalalarini hal etishga qaratiladi. Yashil iqtisodiyotning turli talqinlari uchun umumiy bo'lgan jihat uning ijtimoiyligi bo'lib hisoblanadi [2]. Shuningdek, 2012-yilda BMT ekologik dasturini amalga oshirish doirasida quyidagi asosiy tamoyillar shakllantirildi [3]:

- samaradorlik va yetarlilik tamoyili. Yer resurslaridan foydalanish tabiiy tizimlarning tiklanishiga zarar keltirmaydigan darajada cheklangan bo'ladi. Davlatlar barqaror ishlab chiqarish va iste'molni qo'llab-quvvatlaydi, kam uglerodli va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy qiladi.
- farovonlik tamoyili. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Biroq, uning mezonlarini qayta ko'rib chiqish kerak. YaIM darajasi farovonlikni baholash uchun nomaqbul vositadir, chunki unda ekologik omil hisobga olinmaydi.
- yaxshi boshqaruv tamoyili. Iqtisodiyot shaffof va hisobdor bo'lishi kerak. Atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik ularning ta'siriga mutanosib ravishda mamlakatlar



o'rtasida taqsimlanadi. Iqtisodiy tizim turli mamlakatlarning madaniy xususiyatlariga moslashtirilgan umumiy ekologik standartlarga amal qiladi.

- sog'lom yer yuzi tamoyili. Davlatlar ekologik tiklanish va tabiiy xilma-xillikni saqlashga sarmoya kiritishlari kerak. Yangi tizimning shiori bo'lib “biz yerni ota-bobolarimizdan meros qilib olmaganmiz, biz uni farzandlarimizdan qarzga olganmiz” tan olinishi kerak.

Biroq, yashil iqtisodiyot sohalari quyidagi tamoyillarga muvofiq rivojlanmoqda:

- adolat (tenglik);
- hurmat (barcha uchun farovonlik);
- ehtiyot choralari (er yuzidagi maksimal yuklarni hisobga olish);
- ishtirok etish (qaror qabul qilish);
- boshqaruv (hisobdorlik);
- iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik;
- samaradorlik (barqaror ishlab chiqarish va iste'mol);
- avlodlar o'rtasidagi aloqalar (kelajakka investitsiyalar).

Fikrimizcha, yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida ushbu soha kelajakda barqaror taraqqiy qiladi. Ya'ni, yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlanishga, tashqi ta'sirlarni ichki ta'sirga aylantirishga, qaror qabul qilishda kompleks yondashuvga asoslangan iqtisodiy rivojlanish modeli sifatida belgilanadi. Natijada, yangi texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalangan holda resurslarni tejash va resurslar samaradorligini oshirish borasida hayot sifatini oshirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Resilient People, Resilient Planet: A Future Worth Choosing: the report of the United Nations Secretary General's high-level panel on Global sustainability. – New York: United Nations, 2012. – 94 p
2. Зомонова Э.М. Понятие и принципы «зеленой» экономики. // АНИ: экономика и управление. 2016. Т. 5. № 1(14). - с. 16.
3. <https://journal.sovcombank.ru/esg/что-такое-зеленая-экономика>